ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 1,3

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.03.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.03.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.03.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

MAMMADOVA SHAKAR,
XAMIDOV MANSUR
Ozarbayjon va o‘zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarning qiyosiy-tipologik tahlili 7

YAKUBOVA NILUFAR EGAMBERGANOVNA
O‘zak va qolip (vazn) nazariyasi arabiy o‘zlashmalarni
tahlil qilishning asosiy mezoni sifatida 12

SAMANDAROV RUSTAM DO‘SYOROVICH
Tilshunoslik fani taraqqiyotida applikativ modelning murakkab
sintaktik qurilmalar shakllanishidagi o‘rni 17

ИШАНХАНОВА МУХЛИСАБОНУ ТУРГУНОВНА
Арабская лингвистическая традиция VII–XVII вв.: формирование
интеллектуального стиля и инструментов сохранения языковой нормы 21

ALIMOVA ZARIFAXON VAXOBOVNA
MAMAROZIQOVA SUG‘DIYONA SHUXRATJON QIZI
Jomiyning «Yusuf va Zulayho» dostonida forsiy o‘rin-joy yasovchi affikslarining qo‘llanilishi 25

TO‘YCHIYEVA ZULAYXO HAMROQO‘LOVNA,
YERJANOVA SAULE BAYMURZAYEVNA
Mahmud Koshg‘ariyning «Devony lug‘oti-t-turk» asarida keltirilgan
maqollardagi so‘zlarning semantik-stilistik xususiyatlari 29

SADULLAYEVA MATLYUBA AXROROVNA
Ahmad Yassaviy ijodining ramziy tili va undagi raqamli tasavvuf 33

SOTVOLDIYEV SIROJIDDIN MAXAMMADDIN O‘G‘LI
Arab tilida enantiosemiya hodisasi: semantik tabiati va ilmiy talqinlar tahlili 36

PANJIEVA NASIBA NARMAXMATOVNA
SAIBNAZAROVA NAZOKAT
English proverbs with number components 39

ЛАТИПОВ АЗИЗ АКБАРАЛИЕВИЧ
Сопоставительная характеристика категории
фазовости в английском и узбекском языкознании 42

AMONOV MUXTORJON UMAROVICH
«Boburnoma» asaridagi arabcha o‘zlashmalarda antonimlik 45

ОРИФЗОДА МАДИНА КАМИЛОВНА,
ОРИФЗОДА БОНУ КАМИЛОВНА
Системное изучение словообразовательной омонимии
в ретроспективном и перспективном аспектах 48

SABIROV ASROR ABDULLAYEVICH
Nemis–o‘zbek siyosiy terminlarining semantik va stilistik xususiyatlari 52

IBRAXIMOVA IRODA BOBIR QIZI
O‘zbekistonda til siyosati va ingliz tilining rivoji 56

TURSUNOVA MARXABO RAXMONOVNA
Jojo Moyesning «To seni topgunimcha» romanida kognitiv dissonans fenomenining
psixologik va lingvistik talqini hamda uning tarjimashunoslikdagi ifodasi 60

ARZIMURODOVA E’ZOZA BERDIMUROD QIZI
Zamonaviy mobil aloqa terminlarida transliteratsiya strategiyalari: ingliz va o‘zbek tillari qiyosida 64

BOZOROVA SEVARA KAMOL QIZI
Savdo konsepti doirasida sinonimiya (o‘zbek va ingliz tillari misolida) 68

КАРИМОВА ГУЗАЛ ИХТИЯРОВНА
Лингвокультурологический аспект концепта и его изучение в разных языках 71

MAXAMMATOVA FERUZA OLIMOVNA
O‘tkir Rahmat she’riyatida sinonim so‘zlarning qo‘llanishi haqida ayrim mulohazalar 76

МУНДАРИЖА

MUSTAFOEVA MAKSAD ASKAROVNA
The structural and linguistic analysis of anthroponyms in «Beowuf» and «Alpomish» folk epics 79

NOSIROVA DILNOZA RIZOKULOVNA
Semantic and pragmatic features of john green's novels in contemporary young adult literature 82

RAXIMOVA ZARINA UKTAMOVNA
O'smirlar psixologiyasining lingvopoetik ifodasi va tarjimada ichki monolog hamda emotsional tasvir 87

RAXMATOVA GULNOZA ISOXONOVNA
O'zbek tilidagi so'roq olmoshlari va so'roq yuklamalarining ingliz tilidagisi bilan qiyosi 90

BERDIYEVA SITORA UTKEROVNA
G'afur G'ulomning «Shum bola» asarida yumorning badiiy funksiyalarining lingvistik jihatlari 93

SHAMSITDINOVA MOXINABONU AKBAR QIZI
Yapon tilida omonimlardan foydalanishda nutqiy strategiyalar 98

ADABIYOTSHUNOSLIK

ШОФИЕВ ОБИДЖОН БАХТИЁРОВИЧ
Телба образининг бадиий талқини
(Эркин Аъзамнинг «Сув ёқалаб» ва «Танҳо қайиқ» киноқиссалари мисолида) 100

ASQAROVA ZULAYXO YANGIBOYEVNA
Muhammad Rizo Ogahiyning «Riyozu-d-davla» asaridagi ta'rixlarning badiiy-estetik qimmati 104

MAMADJONOVA SEVARA MAXAMADJON QIZI
Adabiyotshunoslikda dualizm tushunchasining nazariy va
metodologik asoslari (Agata Kristi poetikasi misolida) 109

RAHIMOVA SARVINOZ TOLIBOVNA
Usmon Azimning «Devorlari yiqilgan bog'» hamda «Yana sevgi haqida she'rlar»
asarlaridagi simulyakra va boshqa postmodern xususiyatlar ifodasi 112

СААКЯН РОЗА ЮРЬЕВНА
Поэтика полемического жанра в памфлетной публицистике
Даниэля Дефо и Жжонатана Свифта 115

SHAMSIYEVA SHOXISTAXON QUDRATULLAYEVNA
Gender rollarni aks ettiruvchi stereotiplar 119

НАСРИДИНОВА СИТОРА УТКИРОВНА
Мотив отсутствия и присутствия как средство создания
напряжения в рассказе Джека Ритчи «Отсутствие эмили» 125

BAFOYEVA ROXILA VALIJON QIZI
Amerika hamda o'zbek postmodern adabiyoti xususiyatlari 128

KHAKIMOVA NARGIZA KHAYRILLOYEVNA
Mythological origins of the epics "Arthuriana" and "Alpamysh" 131

TA'LIM

TILOVOVA GO'ZAL RUSTAMOVNA
Ta'lim jarayonida o'quv izohli lug'atlardan foydalanishning nazariy va amaliy ahamiyati 135

YULDASHEVA DILAFRUZ
The role of teacher instruction in efl classrooms: a discourse-oriented analysis
of their importance in teaching young learners 138

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 3
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O'SMIRLAR PSIXOLOGIYASINING LINGVOPOETIK IFODASI VA TARJIMADA ICHKI MONOLOG HAMDA EMOTSIONAL TASVIR

(Shamol ortidan yugurib, Ming quyosh shu'lasi, Tog'lar ham sado beradi asarlari misolida)

Raximova Zarina Uktamovna,
Osiyo Xalqaro universiteti tayanch doktoranti

Inson ruhiyati tasviri badiiy adabiyotning markaziy kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Shaxsning ichki dunyosini aks ettirish til birliklarining konnotativ imkoniyatlari orqali amalga oshiriladi. Ayniqsa o'smirlik davri psixologiyasi badiiy matnda murakkab semantik struktura orqali ifodalanadi. O'smirlik inson hayotidagi o'tish bosqichi bo'lib, bu davrda identifikatsiya, ijtimoiylashuv, axloqiy tanlov, ichki konflikt hamda emotsional beqarorlik kuchayadi. Shu sababli badiiy matnda o'smir ruhiyati ko'pincha ichki monolog, psixologik detal, emotsional-ekspressiv birliklar hamda metaforik modellar orqali tasvirlanadi [1]. Lingvopoetika badiiy matnning estetik tabiatini ochib beruvchi muhim nazariy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Lingvopoetik yondashuv til birliklarining badiiy matnda qanday semantik yuklama kasb etishini o'rganadi. V.V.Vinogradov badiiy nutqni individual uslub bilan bog'liq ko'p qatlamli semantik tizim sifatida tavsiflaydi [2]. Badiiy matnda so'z o'zining nominativ ma'nosi bilan cheklanmaydi, balki konnotativ ma'no hosil qilish jarayonida estetik funksiya bajaradi. Ramziy ifoda badiiy nutqda ma'no ko'p qatlamliligini yuzaga keltiradi hamda psixologik tasvirni chuqurlashtiradi .

Psixologik tasvir lingvistik vositalar orqali amalga oshiriladi. Ichki monolog, erkin bilvosita nutq, metafora, takror, sintaktik parallelizm hamda ellipsis badiiy matnda psixologik holatni ifodalovchi asosiy vositalardan hisoblanadi. Ichki monolog qahramon ongida kechayotgan nutqni aks ettirib, uning hissiy kechinmalarini bevosita ifodalash imkonini beradi. Ushbu nutq turi ko'pincha sintaktik uzilishlar, fragmentar konstruktsiyalar hamda emotsional birliklar orqali shakllanadi. Adabiyotshunoslikda ichki monolog ong oqimi (stream of consciousness) uslubining muhim komponenti sifatida talqin qilinadi [3].

Khaled Hosseini romanlari psixologik realizm an'analarini davom ettirgan holda, shaxs ruhiyatini chuqur tasvirlash bilan ajralib turadi. Ushbu asarlarda o'smirlik davri psixologiyasi travmatik xotira, aybdorlik hissi, qo'rquv, umid va ijtimoiy ziddiyatlar orqali ochib beriladi. Muallif nutqning ichki shakllaridan keng foydalanib, qahramonlarning individual psixologik portretini yaratadi.

«Shamol ortidan yugurib» romanida bosh qahramon Amirning ichki dunyosi retrospektiv monolog orqali ochiladi. Asarning kompozitsiyasi xotira fragmentlari asosida qurilgan bo'lib, travmatik tajriba qahramon shaxsining shakllanishida muhim determinant sifatida namoyon bo'ladi:

«I became what I am today at the age of twelve» [4].

Mazkur gap retrospektiv identifikatsiya modeli asosida qurilgan bo'lib, qahramonning ichki konfliktini ifodalaydi. Tarjimada: «Men bugungi kim bo'lsam, o'n ikki yoshimda shakllandim». Ushbu misolda semantik mazmun saqlangan bo'lsa-da, original matndagi qisqa sintaktik qurilish psixologik keskinlikni kuchaytiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Tarjimada esa grammatik normativlik ustunlik qiladi. Bu hol lingvopoetik ekvivalentlik muammosining murakkabligini ko'rsatadi [5].

Romanda aybdorlik konsepti takror birliklari orqali kuchaytiriladi. Takror affektiv semantikani intensifikatsiya qiluvchi lingvopoetik vosita hisoblanadi. Qahramonning ichki nutqida qo'llaniladigan qisqa gaplar psixologik pauza hosil qiladi.

[1] Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent, 2018.
[2] Vinogradov V.V. Stilistika. Poetika. – Moskva, 1971.
[3] Humphrey R. Stream of Consciousness in the Modern Novel. – Berkeley, 1954.
[4] Hosseini K. The Kite Runner. – New York, 2003.
[5] Leech G., Short M. Style in Fiction. – London, 2007.

«Ming quyosh shu'lasi» romanida emotsional diskurs ayol qahramon ruhiyatining iztirobli holatini ifodalaydi. Asarda metafora emotsional bosimni ifodalovchi asosiy vositalardan biri sifatida qo'llanadi: «grief washed over her» [1].

Mazkur metafora suv konsepti orqali emotsional tajribaning kuchliligini ifodalaydi. Tarjimada: «qayg'u uni butunlay qamrab oldi». Bu yerda metaforik model qisman saqlangan bo'lsa-da, poetik intensivlik darajasi biroz pasaygan. Kognitiv metafora nazariyasiga ko'ra, abstrakt tushunchalar insonning jismoniy tajribasi asosida konseptuallashtiriladi[2]. Shu sababli emotsional holatni ifodalovchi metaforalar badiiy matnda psixologik tasvirning muhim komponenti hisoblanadi. Asarda qo'rquv va umidsizlik semantik maydonlari kontrast birliklar orqali ifodalanadi. Yorug'lik va zulmat oppozitsiyasi qahramon ruhiyatidagi ziddiyatni ifodalovchi semantik model vazifasini bajaradi. Lingvopoetik kontrast psixologik keskinlikni kuchaytiruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

«Tog'lar ham sado beradi» romanida polifonik diskurs kuzatiladi. Asarda bir nechta qahramon nutqi orqali shaxsning ichki evolyutsiyasi ifodalanadi. Polifoniya psixologik tasvirni ko'p nuqtayi nazardan ochib berish imkonini yaratadi. Ichki monolog fragmentar struktura orqali ifodalanadi: «sometimes memory is like a map»[3]. Tarjimada: «ba'zan xotira xaritaga o'xshaydi». Mazkur metafora xotira jarayonining konseptual modelini ifodalaydi. Xarita konsepti kognitiv struktura sifatida tajribani tartibga solish jarayonini bildiradi.

Romanda emotsional diskurs ko'pincha minimalistik sintaksis orqali ifodalanadi. Qisqa gaplar psixologik pauza hosil qilib, qahramonning ichki ziddiyatini kuchaytiradi.

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, tarjimada psixologik tasvirni ifodalovchi lingvopoetik birliklar quyidagi transformatsiyalarga uchraydi:

- sintaktik normallashtirish;
- metaforalarning qisman moslashtirilishi;
- emotsional-ekspressiv birliklarning neytrallashuvi;
- takror birliklarining qisqarishi;
- fragmentar konstruktsiyalarning izchil gaplar bilan almashtirilishi.

Tarjima jarayonida ekvivalentlik muammosi muhim ahamiyat kasb etadi. Komissarov fikriga ko'ra, tarjimada adekvatlik faqat leksik moslik bilan belgilanmaydi, balki funksional-stilistik muvofiqlikni ham nazarda tutadi[4]. Shu sababli psixologik diskursni tarjimada saqlash tarjimonning individual strategiyasiga bog'liq. Lingvopoetik birliklarning transformatsiyasi ba'zan emotsional intensivlikning pasayishiga olib keladi. Ichki monologning fragmentar strukturasini saqlash psixologik tasvirning adekvatligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Shunday qilib, Hosseini romanlarining o'zbek tilidagi tarjimalarida o'smir psixologiyasi asosan saqlangan bo'lsa-da, lingvopoetik qatlamda ayrim modifikatsiyalar kuzatiladi. Metaforik modelning qisman neytrallashuvi, sintaktik strukturalarning normativlashuvi hamda emotsional birliklarning qisqarishi psixologik tasvir intensivligiga ta'sir ko'rsatadi. Lingvopoetik yondashuv tarjima sifatini baholashda samarali metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Psixologik diskursni adekvat yetkazish tarjimonning stilistik sezgirligi hamda konnotativ ma'noni saqlash qobiliyatiga bog'liq.

Olib borilgan lingvopoetik tahlil shuni ko'rsatadiki, Khaled Hosseini romanlarining o'zbek tiliga tarjimalarida o'smirlar psixologiyasi asosan mazmuniy darajada adekvat aks ettirilgan bo'lsa-da, badiiy nutqning ichki strukturasini tashkil etuvchi ayrim lingvopoetik komponentlarda transformatsiyalar kuzatiladi. Xususan, Shamol ortidan yugurib, Ming quyosh shu'lasi va Tog'lar ham sado beradi romanlarida o'smirlik davriga xos bo'lgan ruhiy iztirob, identifikatsiya jarayoni, travmatik xotira hamda axloqiy tanlov muammolari ichki monolog va emotsional-ekspressiv birliklar orqali ifodalanadi. Tahlil natijalari ichki monolog tarjimada eng murakkab rekonstruksiya qilinadigan lingvopoetik birliklardan biri ekanligini ko'rsatdi. Original matnda ichki nutq ko'pincha fragmentar sintaksis, qisqa gaplar, semantik uzilishlar hamda ellipsis orqali berilgan bo'lib, bu hol qahramon tafakkurining spontan va assotsiativ xarakterini ifodalaydi. Tarjimada esa ko'p hollarda sintaktik normallashtirish kuzatiladi, ya'ni fragmentar konstruktsiyalar izchil grammatik gaplar bilan almashtiriladi. Natijada psixologik keskinlikni kuchaytiruvchi ritmik pauza hamda nutqning affektiv intensivligi qisman pasayadi. Emotsional tasvirning lingvopoetik ifodasi metaforik modellar orqali yuzaga chiqadi. Asarlarda qo'rquv, yolg'izlik, aybdorlik va umid kabi psixologik holatlar ko'pincha tabiiy elementlar – yorug'lik, suv, yo'l, sukunat kabi konseptual obrazlar orqali ifodalanadi. Tarjimada mazkur metaforik modellar ko'pincha saqlanadi, biroq ayrim hollarda obrazning ekspressiv darajasi neytrallashadi. Bu hol milliy til me'yorlari hamda tarjimonning stilistik tanlovi bilan izohlanadi. Polifonik diskurs qo'llanilgan matnlarda psixologik tasvir ko'p nuqtayi nazardan yoritiladi. Qahramonlar nutqining individual xususiyatlari ularning ruhiy por-

[1] Hosseini K. A Thousand Splendid Suns. – 2007.
[2] Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago, 1980.
[3] Hosseini K. And the Mountains Echoed. – 2013.
[4] Komissarov V.N. Teoriya perevoda. – Moskva, 1990.

tretini shakllantirishga xizmat qiladi. Tarjimada individual nutq elementlarining qisman standartlashuvi kuzatiladi, bu esa qahramon nutqining individual koloritiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, tarjima jarayonida quyidagi tendensiyalar ustunlik qiladi:

- ichki monolog strukturasining sintaktik soddalashtirilishi;
- metaforik modelning qisman modifikatsiyasi;
- emotsional-ekspressiv birliklarning neytrallashuvi;
- takror birliklarining qisqarishi;
- nutq ritmining izchillashuvi.

Mazkur holatlar tarjima jarayonida semantik ekvivalentlik ustuvorlik kasb etishini, biroq stilistik ekvivalentlik har doim ham to'liq saqlanmasligini ko'rsatadi. Holbuki, psixologik tasvirni adekvat yetkazishda aynan stilistik qatlam muhim ahamiyat kasb etadi. Lingvopoetik yondashuv shuni ko'rsatadiki, badiiy tarjimada faqat mazmunni qayta yaratish yetarli emas, balki matnning psixologik-estetik ta'sirini hosil qiluvchi til birliklarini ham maksimal darajada saqlash zarur. Ichki monolog, metafora, takror va emotsional leksika qahramon ruhiy olamini modellashtiruvchi asosiy komponentlar sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu birliklarning adekvat berilishi o'quvchining empatik qabul qilish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari badiiy tarjimada lingvopoetik ekvivalentlikni ta'minlash kompleks yondashuvni talab qilishini ko'rsatadi. Tarjimon nafaqat semantik mazmunni, balki nutq ritmi, emotsional tonallik va individual uslubni ham qayta yaratishi zarur. Ayniqsa o'smirlar psixologiyasini ifodalovchi matnlarda ichki nutqning tabiiyligi, sintaktik fragmentatsiya va semantik noaniqlik elementlarini saqlash muhim hisoblanadi. Shunday qilib, Hosseini romanlarining o'zbek tilidagi tarjimalari umumiy mazmuniy adekvatlikni ta'minlagan bo'lsa-da, lingvopoetik darajada ayrim transformatsiyalar kuzatiladi. Kelgusida badiiy tarjimada psixologik diskursni qayta yaratish muammosini lingvokognitiv, pragmatik hamda stilistik yondashuvlar asosida yanada chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiqdir. Lingvopoetik tahlil tarjima sifatini baholashda samarali metodologik asos bo'lib xizmat qiladi hamda badiiy matnning estetik qimmatini saqlash imkonini beradi.

Rezyume. Mazkur tadqiqotda Khaled Hosseini qalamiga mansub Shamol ortidan yugurib, Ming quyosh shu'lasi hamda Tog'lar ham sado beradi romanlarining o'zbek tiliga tarjimalarida o'smirlar psixologiyasining lingvopoetik ifodalanish xususiyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ichki monolog, metafora, emotsional-ekspressiv birliklar hamda psixologik diskurs vositalari tarjimada asosan semantik jihatdan saqlangan bo'lsa-da, ayrim hollarda sintaktik normallashtirish va stilistik modifikatsiyalar kuzatiladi. Ichki monologning fragmentar tuzilishi ko'pincha izchil grammatik konstruktsiyalar bilan almashtirilganligi sababli psixologik intensivlik darajasi qisman pasaygan. Shuningdek, emotsional tasvirni ifodalovchi metaforik modellar tarjimada asosan adekvat berilgan bo'lsa-da, ayrim obrazlarning konnotativ salmog'i neytrallashgan. Lingvopoetik tahlil natijalari badiiy tarjimada ekvivalentlik faqat mazmuniy moslik bilan cheklanmasdan, balki stilistik va pragmatik muvofiqlikni ham talab qilishini ko'rsatadi. O'smirlar psixologiyasini ifodalovchi matnlarda ichki nutq ritmi, semantik noaniqlik, emotsional tonallik va individual nutq xususiyatlarini saqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari lingvopoetik yondashuv badiiy tarjima sifatini baholashda samarali metodologik asos bo'lib xizmat qilishini ko'rsatadi. Psixologik diskursni adekvat qayta yaratish tarjimonning stilistik sezgirligi hamda badiiy tafakkurni rekonstruksiya qilish qobiliyatiga bog'liq ekanligi aniqlandi.

Resume. The article examines the linguopoetic representation of adolescent psychology in the Uzbek translations of Khaled Hosseini's novels *The Kite Runner*, *A Thousand Splendid Suns* and *And the Mountains Echoed*. The study reveals that inner monologue, emotional vocabulary and metaphorical imagery are generally preserved at the semantic level, though certain stylistic transformations occur in translation. Fragmented syntactic structures typical of inner speech are frequently normalized, which may reduce the intensity of psychological expression. The research shows that achieving equivalence in literary translation requires not only semantic accuracy but also stylistic and pragmatic correspondence. The preservation of emotional tonality, narrative rhythm and individual speech characteristics is especially important when translating texts that reflect adolescent psychological development. Linguopoetic analysis proves to be an effective methodological framework for evaluating the adequacy of literary translation and for preserving the aesthetic value of the original text.

Резюме. В статье анализируется лингвопоэтическое выражение подростковой психологии в узбекских переводах романов Халеда Хоссейни *Бегущий за ветром*, *Тысяча сияющих солнц* и *И эхо летит по горам*. Результаты исследования показывают, что внутренний монолог, эмоционально-экспрессивная лексика и метафорические образы в целом сохраняются на семантическом уровне, одна-

ко в процессе перевода наблюдаются определённые стилистические трансформации. Фрагментарная структура внутренней речи часто заменяется нормативными синтаксическими конструкциями, что приводит к частичному снижению психологической выразительности. Установлено, что эквивалентность художественного перевода предполагает не только точность передачи содержания, но и сохранение стилистических и прагматических характеристик текста. Передача эмоциональной тональности, ритма внутренней речи и индивидуальных особенностей дискурса играет важную роль в репрезентации подростковой психологии. Лингвопоэтический анализ выступает эффективной методологической основой для оценки качества художественного перевода и сохранения эстетической ценности оригинала.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та'lim. 2026; 3
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘ZBEK TILIDAGI SO‘ROQ OLMOSHLARI VA SO‘ROQ YUKLAMALARINING INGLIZ TILIDAGISI BILAN QIYOSI

Raxmatova Gulnoza Isoxonovna,
Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil izlanuvchisi

Har qanday tilda so‘roq gaplar axborot olish, aniqlashtirish va muloqotni davom ettirishda muhim vosita hisoblanadi. So‘roq ma’nosi grammatik va leksik vositalar orqali ifodalanadi. O‘zbek va ingliz tillarida so‘roq ma’nosini ifodalashda o‘xshash jihatlar mavjud bo‘lsa-da, ularning tuzilishi va qo‘llanishida sezilarli farqlar ham kuzatiladi. Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi so‘roq olmoshlari va so‘roq yuklamalari ingliz tilidagi mos birliklar bilan qiyosiy tahlil qilinadi. So‘roq yuklamalari yordamida hosil qilingan gaplarning javobi har doim ham tasdiq yoki inkor shaklida bo‘lavermaydi. Bu munosabat bilan « Ўзбек тили стилистикаси» kitobining mualliflari quyidagilarni yozganlar: « So‘roq yuklamalari orqali hosil qilingan so‘roq gaplarning javobi hamma vaqt ham tasdiq yoki inkor (ha, yo‘q) formalarida bo‘lavermaydi. Ba’zan javobda ha, yo‘q so‘zlarini qo‘llab bo‘lmaydi: Umuman, ular bilishi kerakmi-yo‘qmi? (O‘. U.) Bu nima? O‘ngimmi yoki tushimmi? (P. T.) O‘qiysanmi yoki ishlaysanmi? Yana dam olasanmi yo bo‘ldimi?

Ba’zan suhbatdosh tasdiqlash yoki inkor qilish o‘rniga so‘roq beradi. Bu tip gaplar javob-so‘roq gap hisoblanadi[1].

O‘zbek va ingliz tillarida so‘roq olmoshlari noma’lum shaxs, predmet, belgi, miqdor yoki sabab haqida ma’lumot so‘rash uchun qo‘llanadi. Asosiy so‘roq olmoshlari quyidagilar: *kim- who, nima- what, qaysi- which, qanday-how, qancha- how many(much), nechta-how many, qachon-when, qayer-where, nega / nima uchun-why.*

Grammatik xususiyatlari har ikki tilda o‘xshash va o‘ziga xosliklarga ega. O‘zbek tilida so‘roq olmoshlari kelishik qo‘shimchalarini qabul qilsa ingliz tilida kelishik kategoriyasi cheklangan bo‘lib uning vazifasini predloglar bajaradi: Masalan:

***Kimni** kutmoqdasiz? → «**Who** are you waiting **for**?»*

Bu yerda *«-ni»* ingliz tilida predlog *for* bilan ifodalanadi.

*Kitobni **qayerga** qo‘ydingiz? → «**Where** did you put the book **on**?»*

Bu jumlada esa kelishik qo‘shimchasi vazifasini on predlogi bajaradi.

Gapda so‘roq olmoshlari o‘zbek va ingliz tillarida ega, to‘ldiruvchi hol vazifalarida kelib turli sintaktik vazifalarni bajaradi:

Ega: ***Kim** kelmoqda? → **Who** is coming?*

[1] Yoqubova Y. A. Badiiy matnda so ‘roq gaplar lingvopoetikasi //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. 7. – PP. 239-245.